

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

**MUXANDIS-TEXNIKA FAKULTETI**

QXM-245 guruh talabasi Toshqulova O'g'iloyning “Muomla  
madaniyati va zamonaviy axloq. Shaxs axloqiy tarbiyasi” mavzusida  
yozgan

# REFERAT

**Topshirdi:  
Qabul qildi:**

**Toshqulova O'  
Rustamov R.**

**QARSHI-2015**

# **Mavzu: Muomla madaniyati va zamonaviy axloq. Shaxs axloqiy tarbiyasi.**

## **Reja:**

1. Kirish
2. Muomala odobi va etiket.
3. Kasb odobi va uning mohiyati.
4. Ijtimoiy muhit va shaxs axloqiy tarbiyasi.
5. Ommaviy madaniyat va uning shaxs dunyoqarashiga ta'siri.
6. Xulosa
7. Adabiyotlar ruyxati

**1. Kirish.** Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichida paydo bo'lgan. Uning paydo bo'lishida kishilarning mehnat faoliyatlari, iqtisodiy munosabatlari muhim rol o'ynaydi. Mehnat tufayli insonning aqliy, axloqiy va boshqa faoliyati shakllana boshlaydi.

Falsafiy – axloqiy fikrlar vujudiga kelgandan boshlab hozirga kunga qadar hayot yuzaga keltirgan turli tuman masalalar, kishilarni qiziqtirib kelayotgan muammolar doimo uning diqqat markazida turadi. Shuning uchun axloqning kelib chiqishida hayot tushunchasi muhim rol o'ynaydi. Hayot eng avvalo inson axloqining manbai va xazinasidir.

## **2. Muomala odobi va etiket.**

Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini uning fuqarolari axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero, axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o'zgaralar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

*Muomala odobi* Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri - muomala odobi. U, mohiyatan, o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta'sir ko'rsatmasdan rasmana yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o'rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo qalamiga mansub mashhur «Robinzon Kruzoning sarguzashtlari» asarini eslashning o'ziyoq kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinzonning naqadar quvonishiga ham sabab ana shunda.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy-meyoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarini tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuxanlilik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe'llilik singari axloqiy meyorlarda namoyon qiladi.

Muomaga odobiga «siz» va «sen»ning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi ham ahamiyatga ega. Xususan, uchinchi shaxs ota-ona, aka-opa yoki boshqa yoshi katta odamlar bo‘lganida ularga nisban birlikdagi u olmoshini emas, hurmatni anglatuvchi «ular» yoki «u kishi» shaklini qo‘llash odobdan hisoblanadi. Masalan, «Otam shunday dedi» emas, «Otam shunday dedilar», «U kishi shuni hohlayaptilar» v.h.

Suhbat paytida tinimsiz harakatda bo‘lib turish, qo‘lni paxsa qilib gapirish yoki suhbatdoshining yoshini nazarga olmay, uni oyoqni chalkashtirib o‘tirgan holda tinglash, birov jon kuydirib so‘zlayotganda esnash va boshqa shunga o‘xshash holatlar ham muomaladagi odobsizlikni bildiradi.

Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasihat qilmasdan va odob o‘rgatmasdan bir-biriga ta’siri, tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiya vositasi sifatida diqqatga sazovor. Shu sababli yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan. Bunda ota-onaning, mahalla-ko‘yning ta’siri katta. Undan foydalana bilish kerak. Zero, axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallashtirishdan boshlanadi.

**Etiket.** Axloqiy madaniyatda yaqqol ko‘zga tashlanadigan munosabatlar ko‘rinishidan biri, bu - etiket. U ko‘proq insonning tashqi madaniyatini, o‘zaro munosabatlardagi o‘zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o‘z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya’ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo‘lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo‘yilgan xatti-harakatni taqozo etadi.

Etiketning qamrovi keng, u, ma’lum ma’noda, xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o‘z ichiga oladi. Masalan, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik etiketi va h.k. Etiketga rioya qilishning mumtoz namunasini biz tez-tez televizor ekrani orqali ko‘rib turamiz. Bu jarayon ayniqsa, davlat rahbarlariga horijiy mamlakatlar elchilarining ishonch yorliqlarini topshirish marosimlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Unda faqat bir xil holat, xalqaro miqyosda o‘rnatilgan qoida hukmron. Uni Prezidentning ham, elchilarning ham buzishga haqqi yo‘q. Yoki juda oddiy, kichkina bir misol: dasturxonda tanovul payti, pichoqni o‘ng qo‘lda ushlab zamonaviy mehmondorchilik etiketining qat’iy qoidalaridan biri sanaladi - uni buzish atrofdagilarda hayrat va istehzo uyg‘otadi. Shu bois etiketni odat tusiga aylantirilgan, qat’iylashtirilgan muomala odobideyish ham mumkin.

Etiketning yana bir alohida jihati bor: unda odob bilan go‘zallikning uyg‘unligini ko‘rishimiz mumkin, qat’iy odob qonun-qoidalari chiroyli xatti-harakatlar vositasida amalga

oshiriladi. Demak, etiket estetika bilan ham bog‘liq, aniqrog‘i, o‘zni tutish estetikasi talablariga javob beradi.

Shunday qilib, etiket - takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko‘zini quvontiradigan muomala hodisasi. Lekin, ayni paytda, u asl axloqiy asosini yo‘qotgan majburiy mulozamat tarzida ham namoyon bo‘ladi: etiket qoidalarini bajarayotgan kishi aslida o‘z xohish-ixtiyoriga qarshi ish ko‘rayotgan bo‘lishi ham mumkin. Bu jihatdan u munofiqlikning bir ko‘rinishiga aylanadi. Masalan, siz biror yoqqa shoshilib, darvozadan chiqdingiz, deylik. Ro‘parangizda tanishingiz yoki qo‘shningiz uchraydi. Siz ko‘rishib, hol-ahvol so‘rashib, so‘ng sharqona etiketga rioya qilib uni: «Qani uyga kiramiz, choy qilamiz, bir hangomalashamiz», deb ichkariga taklif qilasiz. Lekin, aslida, siz uning uyga kirishini aslo istamaysiz, vaqtingiz yo‘q, hatto, shu uchrashganda ketgan vaqtingizni o‘ylab, pitirlab turibsiz. Demak, siz o‘z istagingizga qarshi, etiket-mulozamat yuzasidan yolg‘on gaplarni aytasiz, xunuk eshitilsa ham na chora - munofiqlik qilasiz. Shunga qaramay, umuman olganda, etiket shaxsni muayyan tartib-qoidaga, qanday ichki ruhiy sharoitda bo‘lmasin, bosiqlikka, muloyimlikka va sabr-toqatga o‘rgatishi bilan ahamiyatlidir.

### **3. Kasb odobi va uning mohiyati.**

Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o‘z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro‘y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o‘rni yuksak. Shu bois kasbiy odobga bafurja to‘xtalish joiz.

Har bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko‘pchilik jamiyat a‘zolarining hayot-mamotlari, sog‘ligi, ma‘naviy sog‘lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo‘lishi kabi omillar o‘shanday imtiyozli kasb egalarining o‘z kasbiy burch mas‘uliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko‘rishlariga bog‘liqligi hammaga ma‘lum. Chunonchi, tabobat xodimini, jarrohni olaylik. Deylik, u har bir operatsiya kunida bir necha kishini hayotga qaytaradi; yuzlab odamlar uning yordamiga muhtoj, unga umid va ishonch, ilinj bilan qaraydilar. Bordi-yu, shaxsiy manfaat yo‘lida jarroh

o‘z bemoriga xiyonat qilsa-chi, ya‘ni, uni qasddan halok etsa-chi? Kim uni shunday qilmasligini kafolatlaydi? Yoki jurnalistni olaylik. U shaxsiy manfaati yo‘lida, kasbining kamyobligidan foydalanib, begunoh kishilarni ma‘naviy azobga qo‘yishi, atayin jamiyat oldida sharmanda qilishi va shuning hisobiga o‘zining ba‘zi bir muammolarini hal qilib olishi mumkin emasmi? Mumkin. Zero, to haqiqat yuzaga chiqquncha nohaq tanqidga uchragan shaxsning adoi tamom bo‘lishi hech gap emas. Xo‘sh, jurnalistning shunday qilmasligini kim kafolatlaydi?

Tarixda o‘z dushmanini davolagan tabiblar ham ko‘p uchraydi. Chunonchi, qadimgi hind eposi «Ramayana»da (II asr) behush yotgan Lakshman boshida turgan devlar shohining xos tabibi kechinmalari shu jihatdan muhim. Tabib oldida ikki yo‘l bor edi: biri - saltanat dushmanini muhtoj bemor sifatida davolash, ikkinchi yo‘l davolashdan bosh tortish bilan uni o‘limga mahkum etish. Tabib uzoq mulohazadan so‘ng tabiblik odobi qoidalariga bo‘ysunishni - Lakshmanni davolashni afzal ko‘radi. Zero, kasbiy odob qonun-qoidalari talabiga ko‘ra, bemor to‘shagi ustidagi tabib uchun do‘st yoki dushman degan tushunchalar o‘z ma‘nosini yo‘qotadi, uning qoshida faqat tibbiy yordamga intizor, shafqatga muhtoj, zaif inson yotadi. Davolanib hayotga qaytgan Lakshman devlar mamlakatining tengsiz buyuk jangchisi va saltanat valiahdi Indirjidni jangda halok etadi hamda tabib fuqaro bo‘lgan Lanka davlatining tanazzuliga yo‘l ochadi. Lekin, kitobxon tabibni xiyonatkor yoki sotqin demaydi, aksincha, uning ma‘naviy jasoratiga, halolligiga, kasbiy burchiga sodiqligiga hayrat bilan

Rahbarlikning axloqiy jihatlari, rahbar borasida Islom Karimovning mana bu fikrlari bag‘oyat ibratlidir: «Oddiy odamlarning rahbarlarga munosabati ikki fuqaro o‘rtasidagi munosabatgina emas. Ayni paytda u jamiyatda qaror topadigan ma‘naviy-ruhiy, siyosiy-axloqiy muhitni ham yaratadi... Haqiqiy rahbar odamlarning ko‘ngliga yo‘l topib, ularni ezgulikka, yaxshilikka, yaratishga da‘vat etadi»<sup>1</sup>.

Yuqorida keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, kasbiy odob muammosi, ba‘zilar o‘ylaganidek, Axloq falsafasining mayda masalalaridan emas. Uni har tomonlama o‘rganish, kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabatini tadqiq etish XXI asr axloqshunosligida muhim o‘rin egallajak. Zero, kasbiy odob shaxs va jamiyat axloqiy hayotida o‘zini amaliy axloq tarzida namoyon etuvchi ma‘naviy hodisa sifatida baholanishi lozim.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Асарлар. 15 томлик. Т/Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан кураимиз. Тошкент. Ўзбекистон. 77-б.

#### 4. Ijtimoiy muhit va shaxs axloqiy tarbiyasi.

Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib yetishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab yetadi, o'zida axloqiy fazilatlarni barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va meyorlar asosida yashashga o'rganadi.

Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri - qanday yashamoq kerak, ikkinchisi - nima qilmog'-u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir.

Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma'nosi, avvalo, ota-onaning o'zi axloqiy tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak degani. Zero, qush inida ko'rganini qiladi: ota-ona oilada yuksak axloq namunasini ko'rsatishi lozim.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lgan yo'li, bu - *namunaviylik* tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota-ona bolaga axloqiy namuna bo'lishi kerak. Maktabda va oliy o'quv yurtida muallimlarning ta'lim berish usullaridan tortib, to «maydachuyda» xatti-harakatlarigacha o'z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo'ylik yoshlar axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta'minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda axloqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida *televideniye*ni keltirish mumkin. U deyarli barcha san'at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko'rsatish imkoniga ega. Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan muntazam ko'rsatuvlar ham berib boriladi. O'zbek tilidagi «Otalar so'zi - aqlning ko'zi», «Rivoyat», «Oqshom ertaklari» singari ko'rsatuvlar bunga misol bo'la oladi. Shu bois televideniye hech qachon yengiltaklikni targ'ib etuvchi qo'shiqlar, salkam pornografik reklamalar, inson qalbini qattiqashtiradigan «o'ldir-o'ldir»lardan iborat videofilmlar korxonasi bo'lib qolmasligi kerak.

Axloqiy tarbiyaning aqliy-ma'naviy va jismoniy tarbiya bilan qo'shib olib borilishi maqsadga muvofiq. O'shanda jamiyatimiz har jihatdan kamol topgan fuqarolik jamiyatiga aylanadi. Mamlakatimizda buning uchun barcha huquqiy-ijtimoiy shart-sharoitlar yaratilgan.

## 5. Ommaviy madaniyat va uning shaxs dunyoqarashiga ta'siri.

G'arbda «populyar» yoki qisqartirilgan holda, «pop-kultura» (ya'ni «ommaviy madaniyat») deb atashadi. Garchi «madaniyat» deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-ma'nosiga, maqsad-niyatiga ko'ra «ommaviy madaniyat» chinakam madaniyatning kushandasidir.

Mutaxassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilm-fanda «antikultura» («g'ayrimadaniyat») degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun «Pop (ommaviy) madaniyat» tushunchasi, nochorlikdan qo'llanilmoqda. Chunki, «ommaviy madaniyat», aslida madaniyatsizlik, ya'ni ma'naviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. «Ommaviy madaniyat» shu boisdan, eng avvalo, yuksak iste'dod va o'lmas ma'naviy-axloqiy g'oyalar bayroqdori bo'lgan mumtoz madaniyatga, san'atga, uning boyliklariga qarshi tish-tirnog'i bilan kurashib, uni inkor etib kelyapti.

«Ommaviy madaniyat» ko'pdan-ko'p shakllarda o'zini namoyon etadi. **Kitch** (zarracha badiiy-estetik qimmatga ega bo'lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish), **komiks** (tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa - rasm mahsulotlari), **starizm** (subektiv ehtirolarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktorlarni ilohiylashtirish), **xepining** (avvaldan rejalashtirilmagan, nogahonda uyushtiriladigan «keskin» tomoshalar, masalan, royal, pianino yoki avtomobillarni urib abjag'ini chiqarish yoxud o't qo'yish orqali vahshiyona, ommaviy «ko'ngil ochish»lar uyushtirish) «ommaviy madaniyat»ning ayrim ko'rinishlaridir. «Pop-art» chilarning dasturiy qarashi shundayki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e'zozlashadi; ma'naviy dunyoni emas, maishiy-iste'molchilik his-tuyg'ularini qadrlaydilar va ularni keng ommalashtirishga intiladilar. Ularning ma'naviy pozitsiyasi - ma'naviyatni o'ldirish va «narsalarga qullik»ni rag'batlantirishdir. Amerikaning taniqli adibi R. Bredberi aytganidek, «ommaviy madaniyat» maktabidan o'tgan avlod uchun hayotning ma'nosi - avtomobil, televizor, muzlatkichga ega bo'lish. Agar televizor ikkita bo'lsa, ularga shuncha yaxshi.

Ommaviy madaniyatda «**Pop (ommaviy)-musiqa**» alohida o'rin tutadi. «**Pop-musiqa**»ni «**Yangi rok**» belgilaydi. «Yangi rok», ta'bir joiz bo'lsa, kuchaytirilgan ritmik tuzilmali musiqadir. YA'ni jazavali ritm, zarb, shovqin ushbu musiqaning qiyofasidir. Bu musiqa tinglashga, qalbdan huzurlanishga emas, balki vujud harakatiga, talvasali raqsga yo'naltirilgan. «Ommaviy madaniyat»dagi texnik-ijro vositalari musiqa imkoniyatlarini nihoyatda toraytirmoqda, polifonizm - musiqiy sadolar boyligi va rang-barangligini yo'qqa chiqarmoqda. Umuman aytganda, «pop-muzika» ijrochiligi ko'ngilochar musiqa niqobi ostida ommaviy



vasvasali, shaytoniy talvasali, badaxloq raqslar, ko‘pincha oxiri janjal, ur-yiqit, vahshiyliklarga borib yetadigan agressiv diskoteka shoularini uyushtirish bilan ajralib turadi. «Pop-muzika» namoyandalari o‘z «ommaviy»liklarini ta’kidlash uchun sahnadagi xatti-harakatlari va kiyim-liboslari namoyishida ham - odob-axloq, jamiyatga ehtirom tuyg‘ularini rad etib - asosan ko‘cha, olomonchilik qonun-qoidalariga amal qiladilar. Va o‘zlarining kulguli darajada ajralib turadigan shunday raftorlaridan faxrlanadilar. Afsuslanarli tomoni shundaki, bunday holatlarni «pop-muzika»chilar san’atdagi demokratizmning, xalqchillikning tantanasi, deb bilishadi. «Pop-muzika» namoyandalari ijro etadigan qo‘shiq matnlari esa, avvalo, she’riyatning oddiy talablariga javob bermaydi yoki ular ko‘proq ko‘chada mavjud behayo, jargon iboralarga - qadriyatlarni, insoniy ezguliklarni kinoya, mazax qiladigan so‘zlarga asoslangan. Xullas, erkinlik, demokratiya «namunalari» deb tavsiya etilayotgan «pop-muzika» matnlari bilan haqiqiy she’riyat hamda asl xalqchil did, sog‘lom ruhiyat, ma’naviyat o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor.

Masalan, o‘zining xurmatini bilgan, kalbida ozgina uyat, or-nomus tuygusi bo‘lgan inson hech qachon hammaning oldida yechinib, yuvinmaydi. Lekin oynai jaxon orqali beriladigan sovun yoki soch yuvish vositasiga talluqli reklamada ana shunday xolatlar ochiqchasiga ko‘rsatiladi. Badaniga sovun surkayotgan ayol kishining suv ostida qanday hissiy xolatni boshidan kechirayotgani ko‘z-ko‘z qilinadi. Maqsad - siz xam shunday rohatdan benasib kolmang, shu “bebaxo” sovunni sotib oling, degan mazmunda berilmoqda. Xolbuki, xalkimiz yuvinish foydali ekanini shusiz xam yaxshi biladi va necha asrlardan buyon tozalik ozodalik qoidalariga amal kilib keladi. Modomiki shunday ekan, bunday reklamalar kim uchun?

Qolaversa, dunyoqarash tarbiyasi imkoniyatlarini rivojlantirishimiz lozim. Masalan, «Ogohlik» iborasining ma’nolarini bugungi zamon sharoitidan kelib chiqib, ancha keng miqyosda tushunishimizga to‘g‘ri keladi. YA’ni bugungi ogohlik xalqimiz, ayniqsa, yoshlar dilini, ruhiyatini, aql-idroki va umuman ma’naviyatini diniy-aqidaparastlik, jaholatparastliklar xataridan tashqari, ayni paytda, jahonda yuz berayotgan siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va estetik manfaatlar yo‘nalishidagi oshkora va xufya kurashlarning keng miqyosdagi xatarli jihatlaridan, jumladan, «ommaviy madaniyat»ning yemiruvchi ta’siridan muhofaza qilishni ham o‘z ichiga oladi.

## XULOSA

Qanday fan bo'lishidan qat'iy nazar bevosita yoki bilvosita axloq bilan bog'liq bo'ladi va shu bog'liqlik tabiiy – texnikaviy fanlarni insoniylashtirish vazifasini bajaradi.

Axloq bilan mafkura o'zaro aloqadorlikda bo'lib, jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir majmua muayyan g'oyalari va qarashlar tizimidan iborat. Axloqiy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan kishilargina mafkurani yaratadilar va ommalashtiradilar.

Har bir davlat va jamiyatda bir necha mafkura bo'lishi tabiiy. Lekin ular ichidan biri yetakchilik mavqeini egalaydi. Bu yetakchilik zinhor boshqa mafkuralarni inkor etmaydi va jamiyat a'zolari ko'pchilik irodasini ifodalaydi. Uni shuning uchun milliy mafkura deb atashadi. Erkin demokratik fuqarolik jamiyatini o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan O'zbekiston Respublikasida bu masalaga jiddiy e'tibor berilgan. Chunonchi, O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasidagi birinchi bo'lim, birinchi bobning 12 – moddasida shunday deb yozib qo'yilgan: «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

-Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas». (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, «O'zbekiston», 2003 y, 11-bet).

Milliy mafkuramiz yuksak axloqiylikka asoslangan. U axloqiy printsiplarga amal qilib, jamiyatimizda vatanparvarlik, millatparvarlik, ziyolilik tamoyillarini ustuvor bilib, har bir fuqaroni buyuk davlat yaratishda ishtiroq etishga chorlaydi.

Axloq nafaqat markaziy hodisa, balki, boshqa ijtimoiy hodisalarni harakatlantiruvchi ma'naviy kuch sifatida namoyon bo'ladi. U ma'naviyat tizimida birlashtiruvchi xususiyatga egadir. Prezident Islom Karimov ta'biri bilan aytganda: «Aslini olganda, axloq ma'naviyatning o'zagi», dir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-Toshkent O'zbekiston 2011 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida". "Xalq so'zi" 2011 yil 7 aprel, № 68 (5235)
3. O'zbekistonning 20 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devoning O'zbekiston mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2011yil 31 avgust.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish,xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. –Toshkent: Iqtisodiyot. -2011.-377 bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A Karimovning «Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir» risolasini o'rganish bo'yicha o'quv-qo'llanma. Toshkent -2012 y
8. Sher A. Axloqshunoslik O'quv qo'llanma. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2003y
9. Umarov E.U., Zagrtidnova F.B. Etika (Uchebnik), Tashkent, «Cho'lpon», 2005 y.
10. M.Quronov,. Milliy tarbiya. Toshkent, "Ma'naviyat", 2007 y.
11. Rasulov. Badiiylik – bezavol yangilik. T. 2007 y
12. Axloqshunoslik va nafosatshunoslik fanidan o'quv uslubiy majmua.Qarshi 2011 y

**MUXANDIS-TEXNIKA FAKULTETI QXM-245 guruh talabasi Toshqulova  
O'g'iloyning "Muomla madaniyati va zamonaviy axloq. Shaxs axloqiy tarbiyasi"  
mavzusida yozgan referatiga**

**TAQRIZ**

Ushbu referatda asarning mazmun va mohiyati fan nuqtai nazaridan batafsil yoritib berilgan bo'lib, **muomla madaniyati** hamma zamonda dolzarb ekanligi ko'rsatilgan. Bugungi kunda axloqshunoslik fani oldida ham muhim muammolar turibdi. Axloqshunoslik axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishilarning ijtimoiy hayotdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadigan fan ekanligi kirish qismida yoritib berilgan.

«Axloq, umumiy tushuncha sifatida fanning tadqiqot ma'nosini anglatishi, muayyan tushuncha sifatida esa inson fe'l - atvori va hatti – harakatlarining keng qamrovli qismi ekanligi qayd etilgan.

Mazkur referatda axloq eng avvalo kishilarning oilada, jamoada, jamoatchilik joylarida yurish-turish, yashash qoidalariga, fe'l-atvor, hatti-harakatlarining jamisini ifodalashi va axloq tushunchasi odob, hulq-atvor so'zlarining mazmunini anglatishi batafsil yoritib berishga harakat qilingan. Shu bilan birga axloq tuzilmasi axloqiy ong, axloqiy hissiyot, ahloqiy hatti harakat haqida ham batafsil to'xtalib o'tilgan.

Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettirilsa, doiraning keng qamrovli qismini axloq egallashi referatda misollar bilan yoritib berilgan.

Odob – insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi, kishi faoliyatini belgilovchi tarixiy jarayondir. Odob axloqqa nisbatan tor tushuncha bo'lib, u o'z navbatida barcha axloqiy fazilatlarni yuzaga chiqishi bilan namoyon bo'ladi. Odob aqlning suyanchi bo'lib, barcha fazilatlarning sha'ni va hikmati ekanligi ta'kidlangan.

Talaba bu mavzuning barcha savollariga atroflicha tuxtalib, , **muomla madaniyati** va shaxs axloqiy tarbiya ixtiyor erkinligining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri xaqidagi fikrlarini taxlil qilgan. Ushbu referat talabaning mustaqil fikrlari asosida tayyorlangan bo'lib, barcha talablarga javob beradi.

**Taqrizchi:**

**Rustamov R.**

**MUXANDIS-TEXNIKA FAKULTETI QXM-245 guruh talabasi Toshqulova  
O'g'iloyning "Muomla madaniyati va zamonaviy axloq. Shaxs axloqiy tarbiyasi"  
mavzusida yozgan referatiga**

**TAQRIZ**

Bu referatda asarning mazmun va mohiyati fan nuqtai nazaridan batafsil yoritib berilgan bo'lib, **muomla madaniyati va axloqiy tarbiya** hamma zamonda dolzarb ekanligi ko'rsatilgan. Hozirgi kunda axloqshunoslik fani oldida ham muhim bo'lgan muammolar turibdi. Axloqshunoslik axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishilarning ijtimoiy hayotdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadigan fan ekanligi kirish qismida yoritib berilgan.

"Axloq, umumiy tushuncha sifatida fanning tadqiqot ma'nosini anglatishi, muayyan tushuncha sifatida esa inson fe'l - atvori va hatti – harakatlarining keng qamrovli qismi ekanligi qayd etilgan.

Referatda axloq eng avvalo kishilarning oilada, jamoada, jamoatchilik joylarida yurish-turish, yashash qoidalariga, fe'l-atvor, hatti-harakatlarining jamisini ifodalashi va axloq tushunchasi odob, hulq-atvor so'zlarining mazmunini anglatishi batafsil yoritib berishga harakat qilingan. Shu bilan birga axloq tuzilmasi axloqiy ong, axloqiy hissiyot, ahloqiy hatti harakat haqida ham batafsil to'xtalib o'tilgan.

Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettirilsa, doiraning keng qamrovli qismini axloq egallashi referatda misollar bilan yoritib berilgan. Odob– insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi va kishi faoliyatini belgilab beruvchi tarixiy jarayondir.

Ushbu referat talabaning mustaqil fikrlari asosida tayyorlangan bo'lib, barcha talablarga javob beradi. Talaba bu mavzuning barcha savollariga atroflicha tuxtalib, **muomla madaniyati** va shaxs axloqiy tarbiya ixtiyor erkinligining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri xaqidagi fikrlarini taxlil qilgan.

**Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти**

**“Ўзбекистон тарихи” кафедраси**

**катта ўқитувчиси Ш.Боймуродов.**